

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 98 783,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 6,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 % ga yetdi.














2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





Yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>	
	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>		
	I. YAHM	83 950,0	98 783,4	106,8
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	81 325,3	95 186,1	106,7
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2 624,7	3 597,3	109,8
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	81 325,3	95 186,1	106,7
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26 119,8	29 986,0	104,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	20 828,0	24 137,0	108,4
	sanoat	14 491,8	16 843,3	107,2
	qurilish	6 336,2	7 293,7	111,1
	Xizmatlar	34 377,5	41 063,1	107,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12 984,6	15 497,0	109,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4 346,4	5 733,3	120,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	17 046,5	19 832,8	103,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 26 859,9 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 4,5 % ga yuqoridir.



Yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va oʻsish surʼatlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 31,5 % ni, sanoat tarmogʻi 17,7 % ni, qurilish 7,7 % ni va xizmatlar sohasi 43,1 % ni tashkil qildi.



Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
 I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
 tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,9	96,4
 mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	3,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
 qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32,1	31,5
 sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	25,6	25,4
 sanoat	17,8	17,7
 qurilish	7,8	7,7
 xizmatlar	42,3	43,1
 savdo, yashash va ovqatlanish	16,0	16,3
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,3	6,0
 bo'yicha xizmatlar	21,0	20,8



Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiqga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHMning o‘shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir. O‘shish sur‘atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 104,1 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 31,5 %), sanoatda – 107,2 % (17,7 %), qurilishda – 111,1 % (7,7 %), xizmatlar sohasida – 107,7 % ni (43,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘shish sur‘atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 109,6 % (16,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 120,2 % (6,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % dan (20,8 %) iborat bo‘ldi.



Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘shish sur‘atlari
(o‘tgan yilga nisbatan % da)

2024- yil

2025- yil



5,9 %

YAHM

6,8 %



4,3 %

**Qishloq, o‘rmon
va baliqchilik xo‘jaligi**

4,1 %



7,5 %

Sanoat

7,2 %



5,4 %

Qurilish

11,1 %



6,8 %

Xizmatlar


7,7 %

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i – 1,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida salbiy – 0,5 f.p.) va xizmatlar sohasi – 3,1 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 2,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,1 f.p.) ni tashkil etdi.




2025- yilning yanvar-dekabrida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yil yanvar-dekabr oyi uchun YAHM deflyatori indeksi 2024- yil yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 110,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari xizmatlar sohasida – 110,9 % va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 110,2 % qayd etildi.



Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi
(o‘tgan yilga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 65 894,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – 57 394,3 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 69,2 % ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – 70,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.



Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd. soʻm

Ulushi, % da

2024- yil

57 394,3

70,6 %

2025- yil

65 894,7

69,2 %



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – ma'lum bir davr mobaynida ma'muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichidir;

Yalpi ishlab chiqarish (YAICH) – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatidir;

Aholi jon boshiga YAHM – muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat byudjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar – mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

YAHM fizik hajm indeksi – o'tgan yilning shu davr narxlaridagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) o'tgan yilning shu davr amaldagi narxlaridagi YAHMga nisbati kabi hisoblanadi;

YAHM indeks-deflyatori – hudud iqtisodiyotida narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHMga nisbatini tavsiflaydi.